



NAZAR ESHONQULNING “MAYMUN YETAKLAGAN ODAM”
HIKOYASIDA RAMZIY VA TIMSOLIY NUTQ

Orazbaeva Asal

Ruzmurodova Rayhona

Berdaq nomidagi Qoraqolpoq davlat universiteti

O'zbek filologiyasi fakulteti

Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili Ta'lim
yo'nalishi 1-bosqich talabalari

Ilmiy rahbar: X.Abdullayev

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zining takrorlanmas asarlari va hikoyalari bilan shuhrat qozongan mashhur yozuvchi Nazar Eshonqulning “Maymun yetaklagan odam” hikoyasi tahlil qilinib, undagi kompozitsiya, ramziy nutq, syujet, voqealar rivoji hamda suratlarda ranglar tasviri haqida atroflicha fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: janr, hikoya, syujet, kompozitsiya, obraz, detal, portret, ramziy nutq, muallif nutqi

Nazar Eshonqulning “Maymun yetaklagan odam” hikoyasi 1989-yil 6-yanvar kuni “O'zbekiston adabiyoti va san'ati” gazetasida bosib chiqildi. Bu hikoya voqealari rivojining o'zgachaligi bilan kitobxonni mulohaza yuritishiga unday olgan. Xo'sh, odam maymunni yetaklaganmi yoki maymun odamni yetaklayaptimi? Bu o'rinda o'zbek tiliga xos so'zlarning ma'no qirralari namoyon bo'lgan. Asarning sarlavhasi uning kompozitsiyasida muhim rol o'ynab, hikoyaning mazmunini o'zida namoyon qilgan. Hikoya nega aynan shunday nomlangani va yuqoridagi munozarali o'ylarimizning javobini uni o'qish jarayonida anglab boramiz. Asar syujeti sayyor syujet bo'lib, yozuvchi hikoyani mavjud qoliplar asosida emas, mutlaqo yangicha talqin, yangicha ruhda, o'ziga xos salohiyatda yozgan. Syujet voqealari xronikal tarzda joylashgan. Voqealar ekspozitsiyadan boshlangan. “Bu voqea uch yil oldin bo'lgan edi. Shu ko'chada bir uyni ijaraga olib ko'chib kelganimda cholning sharti ketib, parti qolgandi, u ko'channing muyulishida men egallagan uyga qo'shni hovlida yashardi”[1]”. Hikoya boshlanishida qahramonning o'tgan hayot davrini eslashi bilan asar portretiga alohida e'tibor beradi. “Portret” o'zi nima? “Portret – kishilarning badiiy tilda tashqi ko'rinishini tasvirlashi va shu orqali qahramonni his-tuyg'usini, ruhiy holatini ifodalab beradi”[2]”. Hikoyada cholning portreti: “ U qoboqlari soliq, soqoli qirilmagan, bir paytlar semiz bo'lgan, ajinlar taram-taram qilib tashlangan, ko'rimsiz yuzi badjahl ma'budlarning haykaliga o'xshab ketar, unga qaragan odamning yuragi noxush bir hisdan orqaga tortar edi. Ko'zlari hissiz va isodasiz, egnida elliginchi yillarning andozasida tikilgan ancha salobatli kitel, baqbaqasi osilib turgan holda o'ychan o'tirardi.”[3]” Ushbu tasvirdan qahramon yoshi keksaligini hayot sinovlarida ancha toblanganligini anglashimiz mumkin. Qahramon qiyofasini matn mazmun – g'oyasini chizib berish, albatta, mualif nutqi orqali amalga oshiriladi. Muallif nutqi va personaj



nutqi. Adabiy asar tili bir-biridan uslubiy farq etadigan ikki bo‘lakdan – muallif nutqi va personaj nutqidan iborat. Muallif nomidan aytilgan poetik unsurlar muallif nutqini tashkil etadi. Muallif nutqining vazifalari xilma-xil. Ularning hammasi asar mazmunining ta’sirchanligining ortishiga xizmat qiladi. Muallif nutqi axborot beribgina qolmay, personajlarning barcha faoliyati, holati, hayotida ro‘y bergan va ularga noma’lum bo‘lgan juda muhim hodisa yoki holatlardan ham o‘quvchini ogoh qiladi. Personajlar nutqi asar voqealarida ishtirok etayotgan qahramon va personajlarning o‘zaro aloqa va munosabatlarida namoyon bo‘ladi, xarakter qiyofasini yaratishga yordam beradi. Hikoyamizda talabaning cholni uyiga kirib kelishi uning holatini ko‘rib, tashqaridan uning mohir rassom ekanligini eshitganida unda qiziqish paydo bo‘lganligi va cholning holatini ko‘rib “nahot shu inson mohir rassom bo‘lsa”-deya o‘yga tolib qolishi cholning chizgan suratlarini tomosha qilishni so‘raydi. Rassom go‘yoki o‘zi chizgan suratlaridan bezib ketgandek edi. Suratlardagi tasvirlar, undagi har bir detal o‘zgacha bir ma’no anglatadi. Birinchi suratda “Maymun yetaklagan odam” qiyofasi aks ettirilgan bo‘lib, undagi yosh baquvvat o‘spirin o‘rmondan maymunni zanjirband holatda olib chiqishi, zanjir maymun bo‘ynida tarang holatda turganligi, yigitning ko‘zida ishonch barq urib turishi insonning hayotga bo‘lgan ishonchini, qat’iyatini ifodalab beradi. Suratdagi chizg‘ilar rang-barangligi va shu ranglarga qora rangning kirib kelishi borgan sari qorong‘ulik qamrovining kengayishi, keksalikka o‘tishi, davr va muhitning tiniq ko‘rinishi shu suratlarda ifodalangan. Hikoyaning oxirida cholning vafot etishi, u chizgan so‘nggi suratidagi tasvirlar qahramonni juda qiziqtiradi. U nogohon suratlar chizilgan xonaga kirib qoladi. Bahmal yopilgan suratni ko‘radi-yu, hayron bo‘lib qoladi. Unda birinchi chizgan suratning aksi turar edi. Maymun odamni yetaklab o‘rmondan olib chiqishi, maymun g‘amgin holatda bir keksa kishini yetaklab olib ketishi tasvirlangan edi. Inson yoshlik o‘spirinlik vaqtida hamma narsa qo‘lidan kelishi, o‘zida bo‘lgan ishonchi jo‘sh urib turishi, o‘t-olov bo‘lib yonishi, yoshi o‘tgani sari kuch-quvvatdan qolishi, hayoti bir xillikka ko‘nib qolishi, kimningdir yordamiga muhtoj bo‘lishi asta-sekinlik bilan jamiyatga singib borishi tasvirlanganligini ko‘rishimiz mumkin. Asardagi talaba va cholning nutqida shu unsur ko‘zga tashlanadi: “-Xo‘sh,- dedi u mening idish-tovoqni yig‘ishtira boshlaganimni ko‘rib, suratlar sizga yoqdimi? Yelka qisdim va suratlariga tushunmaganimni aytdim. U charchaganidan milklariga yosh sizib chiqqan, horg‘in ko‘zlarini menga achingandek, bir zum qadab turdi-da, keyin bosh silkidi. –Ha, to‘g‘ri, biz tushunarsiz yashadik, -dedi g‘amgin tusda, - har bosgan qadamimiz odamlar uchun shubhali va qorong‘u bo‘lib qolgan, albatta, bunga siz emas, o‘zimiz aybdormiz.”[4]” Chol ushbu dialogda nima demoqchi? Umr o‘tkinchi ekan, uni bosib o‘tish insonning o‘ziga bog‘liq, lekin shu yo‘lni qanday bosib o‘tishini o‘zi tushuna oladimi? Hayotda nima uchun yashayotganligi-chi?



Qahramonimiz hayotini ochib beruvchi shu kabi savollar beixtiyor kitobxonni ham o'ylantirib qo'yadi. Hikoyadagi bu kabi ramziylik nutqda teran xulosa chiqarishga turtki bo'ladi. Shuningdek, asarda maymun, ota va o'g'il obrazi ham ahamiyatga molik. "Obraz" atamasi rus tilidan olingan bo'lib, o'zbekcha tarjimada "aks" degan ma'noni anglatadi. Masalan, kishining oynadagi aksiga nisbatan ham "obraz" deb aytiladi"[5]". Hikoyada cholning o'g'li qimorbozligi, otasini hurmat qilmasligi oqibatida cholning ishdan bo'shab, nafaqaga chiqishiga olib keladi. Maymun obrazi jamiyatning ramzi sifatida talqin qilingan. "Ch.Darvin ta'limotiga ko'ra, inson maymundan yaralgan deb aytiladi. Aslida esa aksincha, o'zlarining gunoh ishlari bilan Allohning qahrini keltirgan insonlar qavmi maymunga aylanib qolgan. Hech bir musulmon kishi bu fikrga shubha qilmaydi. Shu jihatdan olib qarajak, maymun – o'sha davrdagi sobiq mustabid tuzumning noto'g'ri g'oyalari asosida shakllangan jamiyat ramzi bo'la oladi. Bu esa asarda ekspozitsiya, tugun, voqealar rivoji, konflikt, kulminatsiya kabi syujet tarkibiy qismlarida o'z ifodasini topadi. Choldagi maxfiylik ochila borishi, uning talaba yigit bilan bo'lgan suhbatida davomida keltirgan fikrlar asar kulminatsiyasi bo'la oladi. Asardagi cholning o'limi, uning umrining oxirida chizgan rasm asar voqealarini butunlay tushunarli bo'lishiga, sirlilikning yo'qolishiga xizmat qilgani uchun asarning yechimi hisoblanadi. Hikoyada keltirilgan sarlavha, portret, peyzaj, detal, qistirma epizod kabilar asar kompozitsiyasini yaxlitlovchi muhim omil vazifasini bajargan. Ayniqsa, cholning uyi tasviri tushirilgan suratlar, hikoyadagi o'zgacha kayfiyat, undagi kirlik, qoralikni ta'kidlashga xizmat qilgan. "Nazar Eshonqul hikoyalari tili o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Unda asar qahramonlarining ijobiy yoki salbiy qahramon ekanligi yozuvchi tilidan e'tirof etilmaydi. Aksincha, u bu ishni o'quvchining o'ziga qoldiradi, uni mushohadaga chorlaydi. Umuman olganda, asarda kimlar ulug'lanayotgani, qoralanayotgani ko'pincha bevosita emas, bivosita ifodalanadi. Majoziy, ko'chma ma'noli tasvirlar ta'rif-u tavsiflarga tez-tez murojaat etilib, ularning ustuvorligi ta'minlanadi.

Demak, inson bu hayotda yashar ekan yoshlikda, o'spirinlik davrida kuch-g'ayratga egaligi, o'ziga bo'lgan ishonchining chegarasi yo'qligi, yosh o'tgani sari inson quvvati va sog'ligidan asta-sekin mahrum bo'lib borishi, keksalik, qarilik o'ziga bo'lgan ishonchning kamayishi ayni haqiqatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nazar Eshonqulov "Maymun yetaklagan odam" Yangi asr avlodi Toshkent 2004
2. Dilmurod Quronov "Adabiyotshunoslikka kirish" Akademik nashr Toshkent 2018
3. Izzat Sulton "Adabiyotshunoslik nazariyasi" Toshkent 2013



4. Sh.Sayfullayeva “Nazar Eshonqulning hikoyalari tahlili “Maymun yetaklagan odam” misolida ilmiy maqola
5. Nurafshon Oeipova “Nazar Eshonqulning modern asarlari tahlili” ilmiy tadqiqot
6. Dauletbaevich, A. X. (2023). THE ARTISTIC INTERPRETATION OF FEMALE PSYCHOLOGY IN THE NOVEL. *Gospodarka i Innowacje.*, 41, 117-122.
7. Dauletbaevich, A. X. (2023). HARMONY OF POETIC SPEECH AND IDEAS IN THE NOVEL GENRE. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 3(4), 71-75.
8. Abdurakhmanova, D. K., Karimova, N. M., & Sh, B. R. (2019). Modern Problems of Linguistics and Methods of Teaching English Language. *International Journal on Integrated Education*, 2(6), 15-17.
9. Ubajdullaev, S. N. (2021). The use of mental cards when teaching a foreign language for university students. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies (IJPSAT)(ISSN: 2509-0119)*, 25(2), 90.
10. Karimova, N. (2024). THE PROCEDURE FOR WARNING RESIDENTS OF THE NEIGHBORHOOD ABOUT EMERGENCY SITUATIONS. *Modern Science and Research*, 3(1).
11. Karimova, N. (2023). ORGANIZING POPULATION RELOCATION MEASURES WHEN THE RISK OF EMERGENCIES ARISES AND OCCURS. *Modern Science and Research*, 2(10), 361-363.
12. Karimova, N. (2023). FIRST AID FOR THE INJURED IN EMERGENCIES. *Modern Science and Research*, 2(10), 364-367.
13. Ma'mura, Y., Durдона, B., Umida, N., Umida, Y., & E'zoza, A. (2020). Methodology of teaching English for specific purposes and difference between general English. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 8(1).